

*Nozima ALIMOVA,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti katta o'qituvchisi*

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD M.Akhmedova taqrizi asosida

INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish, ertangi kunimizning munosib davomchilarini kamolga yetkazish bo'yicha bosqichma-bosqich mustahkam tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratilmoqda. Keyingi yillarda sohaga oid qabul qilingan qator davlat dasturlariga binoan ko'plab ta'lim muassasalari yangi qurildi, eng zamonaviy o'quv anjomlari bilan ta'minlanib, dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalari o'rganilib ta'lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Bugungi kunda eng katta e'tibor oliy ta'limda o'qitish jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, talabalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitni yaratishga qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion loyihalalar.

CURRENT STATE OF INDIVIDUALIZATION OF EDUCATION IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING AND WAYS TO IMPROVE IT

Annotation

Strong organizational and legal mechanisms are gradually being created in our country for the fundamental improvement of the education system and the development of worthy successors of our tomorrow. In recent years, in accordance with a number of state programs in the field, new educational institutions have been built, provided with the most modern educational equipment, modern educational programs and teaching methods have been studied in the world. A new approach to the process, innovative technologies are being applied. Today, the greatest attention is paid to the implementation of modern approaches to teaching processes in higher education, to the creation of all conditions for the intellectual, moral, aesthetic and physical development of students.

Key words: Educational system, modern educational programs, teaching methods, information and communication technologies, innovative projects.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ И ПУТИ ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация

В нашей стране постепенно создаются прочные организационно-правовые механизмы для коренного совершенствования системы образования и воспитания достойных продолжателей нашего завтрашнего дня. За последние годы в соответствии с рядом государственных программ в сфере построены новые учебные заведения, оснащенные самым современным учебным оборудованием, изучены современные образовательные программы и методы обучения. Новый подход к процессу, применяются инновационные технологии. Сегодня наибольшее внимание уделяется реализации современных подходов к учебному процессу в высшей школе, созданию всех условий для интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития студентов.

Ключевые слова: Система образования, современные образовательные программы, методы обучения, информационно-коммуникационные технологии, инновационные проекты.

Kirish. Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlanib, unda sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Konsepsiyada uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, oliy ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda oliy ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etishga qaratilgan o'ta muhim yo'nalishlar belgilangan.

Hozirgi paytda uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri – yangicha ta'limni shakllantirish va halqaro ta'lim muhitini yaratish bo'lib, ushbu masala respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan imzolangan bir qator direktiv hujjatlarda o'z aksini topgan. Mazkur hujjatlarda ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish hamda oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'qitish masalalariga alohida urg'u berilgan. Ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalash jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va uslublarini joriy qilish, ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishlari uchun sharoit yaratish hamda bu vazifalarni amalga oshirish uchun pedagog va mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirish talab qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarni o'qitish jarayonida ular namoyon qiladigan individuallik nimaga bog'liq? Talabalarning individualligini qaysi jihatlar belgilaydi? Talabalarni tarbiyalash va o'qitish jarayonida nafaqat talaba shaxsining, balki uning bilish faoliyatining o'ziga xosliklarini hisobga olish zarurligiga qaratish muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaganlar.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi didaktik shartlarning bajarilishi maqsadga muvofiq:

- 1) ta'lim jarayonini tashkil etishda talaba shaxsini har tomonlama va chuqur o'rganish, bilish faoliyatini hisobga olish;
- 2) ta'lim jarayonini nafaqat talaba shaxsiga, balki uning individualligiga yo'naltirilishini ta'minlash;
- 3) o'qitish metodlari va didaktik topshiriqlarni talabalarning psixik rivojlanishi, yosh davrlari va gender farqlarini hisobga olib differensiallash;

4) didaktik topshiriqlarni tanlashda talabalarning bilish faoliyatlarini faol rivojlanishda davom etayotganligini hisobga olib, topshiriqlarni kichik guruhlarda bajara olishlari mumkin bo'lgan darajada murakkab bo'lishi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarni ijtimoiy, aqliy va intellektual rivojlanish jarayonlarini jadallashtirish, ma'lumotlarni tushunib va qiziqib o'zlashtirish, tabiat va jamiyatga oid tasavvurlarini tartibga solish va to'g'ri shakllantirish hamda psixik rivojlanishlarida sifat o'zgarishlar ro'y berishi bilan birga ijodiy tafakkur, qobiliyatlar va iste'dodni erta aniqlab, ularni maqsadli rivojlantirish muammolari hal etiladi. Ma'lumki, hozirda ta'lim jarayonini tashkil etish oldida turgan asosiy muammolardan biri ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uni tashkil etish masalasidir. Ushbu muammoni hal etish doirasida qator tadqiqotlar olib borilgan.

Ta'limni differensiallashtirish va individuallashtirishga oid tadqiqot ishlarini chuqur tahlil etgan holda N.S. Purisheva "differensiallashtirish" va "individuallashtirish" tushunchalarini aniqlashtirishga oid turlicha yondashuvni taklif etadi, ya'ni ta'limni differentsiallashtirishni ikkiga: ichki (individuallashtirilgan) va tashqi turlarga ajratadi. Biz, muallif singari, ichki differentsiallashtirish yordamida talabalarning individual xususiyatlarini e'tiborga olishni amalga oshirilishga imkon berishini yanada yaqqol namoyon bo'lishini ta'kidlamochimiz.

Birinchi navbatda bizni ichki differentsiallashtirish ko'proq qiziqtiradi, sababi tashqi differentsiallashtirish ta'lim muassasasida amalga oshirilgan, talabalar tanlagan kasbiga muvofiq holda turli yo'nalishlarda ta'lim olishadi. Ichki differentsiallashtirish quyidagicha amalga oshirilishi N.S.Purisheva tomonidan taklif etiladi: individual yondashuvni amalga oshirish (majburiy tayyorgarlik darajasi) va darajali differentsiallashtirish (yuqori tayyorgarlik darajasi).

Bundan ko'rinib turibdiki, ichki differentsiallashtirish nafaqat ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olishning an'anaviy shakli (ta'lim oluvchilarga individual yondashuv), balki darajali differentsiallashtirish shaklida ham amalga oshirilishi mumkin. Ichki differentsiallashtirish deganda, odatdagi guruhlarda talabalarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish doirasida o'qitish amalga oshiriladigan ta'limning tashkil etilishi tushuniladi. Ularning barchasi bir xil o'quv rejasi, dasturlari va qo'llanmalari bilan ishlaydi, faqat o'qituvchi individual metodlar, shakllar va ta'lim vositalari hamda nazorat usullarini qo'llaydi. Bunda turli darajadagi bilish faoliyatlarini amalga oshirish uchun akademik guruh ichida kichik guruhlarni tashkil etish mumkin. Mazkur yondashuv asosida ichki differentsiallashtirish ta'limni individuallashtirish deb ataladi. Ichki differentsiallashtirishning asosiy maqsadi "ta'lim jarayoni va ta'lim oluvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini muvofiqlashtirish, har bir o'quvchining psixik rivojlanishini ta'minlovchi shart-sharoitlarni yaratish" hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Darajali differentsiallashtirish qo'llaniladigan ta'lim ta'lim oluvchilarning o'z individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv materiali o'zlashtirilishining murakkablik darajasini mustaqil va ixtiyoriy tanlash imkonini beradi. Darajali differentsiallashtirish o'zlashtirishning bir nechta darajasini nazarda tutadi: tayanch (majburiy tayyorgarlik darajasi) yuqori va yuqori (har ikkisi minimaldan yuqori bo'lgan talabalardan iborat darajani ifodalaydi) va (yoki) tayyorgarlik yaxshi bo'lgan talabalarning imkoniyatlari va qiziqishlariga muvofiq keladigan yoki qobiliyati sust bo'lgan talabalar uchun "rivojlanishining yaqin doirasi" hisoblanadigan. Ta'lim oluvchilarning ushbu darajalardagi harakati ixtiyoriy bo'lib, talabaga "muntazam ravishda rivojlanishning yaqin doirasida, ta'limning individual maksimal kuchli darajada bo'lishi keng" ta'minlanishi imkonini beradi. Ta'lim jarayonida darajali differentsiallashtirishni amalga oshirishda tayanch darajani – majburiy tayyorgarlik darajasini ajratish muhim bo'lib, undan kelib chiqqan holda materialni o'zlashtirishning yuqori darajasini shakllantirish mumkin bo'ladi. Tayanch bilim darajasi oliy ta'limning ma'lum har bir tayyorlov yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standarti asosida belgilanib, har bir ta'lim oluvchi uchun taalluqli bo'ladi. Yuqori murakkablikdagi daraja nazariy materiallarni nisbatan kengroq qo'llashni talab etuvchi topshiriqlarni o'z ichiga oladi, shuningdek, u yoki bu masalani echishda ma'lum bo'lgan algoritmlar chegarasidan chiqishni ham nazarda tutadi. Yuqori daraja etarli darajada murakkabligi bilan ajralib turadigan hamda tayyor echish algoritmi mavjud bo'lmagan topshiriqlarning bajarilishini nazarda tutadi.

Hozirgi zamon pedagogikasi uchun ta'lim jarayonida individual xususiyat va muammoni o'rganish ochiq xolat emas. U uzoq tarixga borib taqaladi. Eng ideal variant individual xususiyatni hisobga olinib, uy tarbiyasi hamda yashash turmush sharoitida olgan bilimi bilan bog'liq. Talabalar bilan pedagog ish olib borar ekan, xar bir aniq shaxsning rivojlanish yo'li, uning bilim va ko'nikma hosil qilishiga mos ta'lim jarayonini yaratish kerak bo'ladi. Oliy ta'limda bilim berishda har birining xususiyatini e'tiborga olish amalda juda qiyin holat. O'qituvchi murakkab holatda guruhda ko'p talabalar bilan ishlarkan, u xar bir talabalarning yuqori darajada bilimli bo'lishiga erishishi kerak. So'zsiy, real ta'lim jarayonida xar bir talaba individual bilim o'zlashtiradi. Ammo barcha talabalar deyarli bir xil bulgan bilimni o'zlashtirishlari mumkin. Chunki ta'lim jarayonida talabalarda individual taraqqiyotda umumiylikni aniqlash mumkin. Talabalar taraqqiyot darajasini umumiy xarakterlash, faoliyat va o'zini tutishda o'xshashlik motivi bo'ladi. Odatda bir xil, yoshda farq kam bo'lgan talabalarda darajada umumiylik mavjud. Shu tufayli bunday talabalarning ruhiy xususiyatida umumiylik bo'lganidan xar bir talaba o'quv materialini tushunishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Talabalarning individual xususiyatini o'rganishning asosiy yo'li talabalarni muntazam ravishda bir me'yorda kuzatish, belgilangan mavzuda individual va guruh bilan suhbat o'tkazish, qo'shimcha o'quv topshiriqlari berish, talabalar fikrini tahlil qilish, jamoada o'quvchining o'rni bilan bog'liq maxsus topshiriq berish, do'stlariga munosabati, uning guruhdagi pozitsiyasiga e'tibor berishdan iborat. Muhimi, talabalarni atroflicha o'rganish hamda ularda mavjud bo'lgan kamchilikni bartaraf etib, ijobiy sifatiga e'tibor qaratish kerak. «Individual yondashuv» ni xuddi shunday tushunmoq bizning fikrimizcha maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Shuni ta'kidlash lozimki, taklif etilayotgan barcha darajalar uchun talabalar, shuningdek, ularni baholash shartlari va mezonlari ta'lim oluvchilar uchun tushunarli tarzda bayon etilishi kerak. Shundan kelib chiqib, ular topshiriqlarning murakkablik darajasini o'z qobiliyatlariga muvofiq holda ixtiyoriy tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa har bir ta'lim oluvchining tayanch darajadan past bo'lmagan nazariy material hajmini to'laqonli olish imkonini beradi. Bundan tashqari turli darajalar uchun talabalar uchun ochiqligi turli murakkablik darajadagi ta'lim mazmunini ixtiyoriy anglangan holda individual tanlashi uchun asos bo'ladi, talabaga uning xususiyatlari va qiziqishlarini e'tiborga olgan holda to'la rivojlanishi uchun muvofiq keladigan individual ta'lim traektoriyasini tanlashini ta'minlaydi. Shunday qilib, ichki differentsiallashtirish har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini e'tiborga olish imkonini beradi. Bunda o'qituvchi uchun qo'yiladigan asosiy talab: ularning rivojlanish darajasiga muvofiq keladigan talablarni qo'ya bilishi, ularga mos topshiriqlarni ishlab chiqishi, shu asosda metodlar va ta'lim shakllarini tanlay bilishidir. Ta'lim jarayonining natijasi esa talabalarning fanni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi oshishi va o'z-o'zini baholashda ularning faollashishida namoyon bo'ladi.

1. Dyachenko V.K. Collaboration in learning: On the collective way of learning. works: Book. for the teacher. M.: Education, 1991. 192 p. (Teacher skill: ideas, tips, suggestions).
2. Dyachenko V.K. Training according to ability // Public education. 1994. No. 2-3.
3. Kleptsova E.Y. Humanization of interpersonal relationships in educational activities. Kirov: VyatGGU Publishing House, 2012. 287 p.
4. Mkrtchyan M.A. Contribution of V.K. Dyachenko in the creation of modern didactics // Modern didactics and quality of education: materials of the scientific and methodological conference, Krasnoyarsk, January 15-16, 2009. In 2 hours. Part 1. Krasnoyarsk, 2009. pp. 72-77.
5. Mkrtchyan M.A. Postulates of learning // Collective way of learning. 2000. No. 5. P. 6-7.
6. Shevchenko N.I. Pedagogical technologies: socialization of schoolchildren in social studies lessons: educational and methodological manual. M.: Russkoe Slovo Publishing House, 2012. 208 p.
7. Akhmedova Mekhrinigor Bahodirovna. "ANALYSIS AND DIFFERENT INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF SPIRITUALITY". Indonesian Journal of Innovation Studies, Vol. 18, May 2022, doi:10.21070/ijins.v18i.590.
8. Magdalena NGONGO, Akhmedova Mehrinigor. A Systemic Functional Linguistic Analysis of Clauses Relationship in Luke Gospel Text, Janji Baru Using Kupang Malay. Studies in Media and Communication Journal. Vol.11, 2023. - P. 33-40.
9. Fitria Nur Hasanah, Rahmania Sri Untari, Shofiyah Al Idrus, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Excel in Critical and Creative Thinking in Object-Oriented Programming. H. Ku et al. (Eds.): ICARSE 2022, ASSEHR 748, 2023. - P. 301–305.
10. Hazim Hazim, Ratih Puspita Anggraenni, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Altruistic Actions in COVID-19 Corpses Care: Empathy, Modeling, and More. International Conference on Advance Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022), 2023/4/27. - P.476-484